

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANISHIDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Murodova Shahnoza Abdurahmon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11164017>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin faoliyati bo'lganligi sababli faoliyat turining bola shaxsi shakllanishida ahamiyati, o'yin vositalari, o'yin texnologiyalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, texnologiya, interfaol, ijodiy, o'yin vositalari, o'zaro munosabatlar.

THE IMPORTANCE OF GAME ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF CHILD PERSONALITY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. This article talks about the importance of the type of activity in the formation of a child's personality, game tools, and game technologies, since the main activity of preschool children is play.

Keywords: game, technology, interactive, creative, game tools, interaction.

ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. Поскольку основной деятельностью дошкольников является игра, в данной статье рассматривается значение вида деятельности в формировании личности ребенка, игровых средств и игровых технологий.

Ключевые слова: игра, технология, интерактив, креатив, игровые инструменты, взаимодействие.

O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining mazmunini tashkil etadi. Bejizga "O'yinni bolalikning hamrohi" deyish deb qabul qilinmagan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat, o'qish, o'yin faoliyatlari ichida o'yin faoliyati yetakchidir. O'yin bolani rivojlantirish, tarbiyalashning asosiy vositasidir.

O'yinning asosiy xususiyati uning ijodiyligidir. Bola o'yinda markaziy o'rinni egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi. Bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi. Bola o'yinni o'zi tanlaydi unda faol ishtirok etadi. O'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud.

Har qanday texnologiyada, jumladan o'yin texnologiyalarida ham o'quv maqsadi aniq belgilanishi zarur. Bu texnologiyaning asosiy negizidir. Maqsad to'g'ri qo'yilishi uchun bolaga nimani o'rgatmoqchi bo'lganligi aniq bo'lishi kerak. Bitta mashg'ulotda bitta maqsad qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolalarni 3 raqami bilan tanishtirish yoki yil fasllari haqida tushuncha berish va hokazo. O'yin texnologiyalari (ayniqsa maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalari uchun) rivojlantiruvchi maqsadlarni (bolaning idrok, xotira, diqqat, tafakkuruni rivojlantirish) amalga oshirishi ham mumkin. Rol o'ynaydigan o'yinlar tufayli bolalarda tasavvur paydo bo'ladi.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Buning natijasida bolalarda nutqi yaxshilanib boradi. Nutq esa o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z histuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi.

Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlar nazariyasi uchun ahamiyatlidir. Xususan, Yan Amon Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan.

Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega, insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interfaol o'yinlardan foydalanish ijobiy natijalarga olib keladi. Bu o'yinlar jarayonida bola passiv obyektidan faol subyektga aylanadi. Interfaol o'yinlar jarayonida bola mustaqil fikrni to'g'ri bayon etishga boshqalarni tinglashga o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda interfaol o'yinlar orqali kelajakda har bir bolada ijobiy sifatlar shakllantiriladi.

O'ynayotgan bolani kuzatib uning qiziqishlarini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Ayniqsa jamoaviy o'yinlar bolalarni ko'pchilik o'rtasida o'zini erkin tuta olishga mustaqil fikrlashga undaydi. Bolalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi.

Tarbiyachining asosiy vazifasi o'yinni tashkil etish, bolalar ijodiga sharoit yaratishdan iborat. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy mahoratiga, uning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolaning psixologiyasini bilishiga, bolalar o'rtasidagi munosabatlarga to'g'ri uslubiy rahbarlik qilishga, o'yinni aniq tashkil etish va o'tkazishga bog'liq. O'yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o'z-o'zidan amalga oshmaydi. O'yin befoyda, hatto zarali bo'lishi, ba'zan yomon hislarni qo'zg'atishi mumkin.

Tarbiyachi o'yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta'sir etib borishi zarur.

Ijodiy o'yinlarda bilim egallash jarayoni yuzaga keladi. Undan tashqari bola o'yinda aqliy kuchini ishga soladi. O'yin bolaning tafakkurini, hayolini, diqqatni, xotirani faollashtirishni talab qiladi.

Jumladan, biz bolaning tafakkur, hayolini rivojlantiruvchi o'yin sifatida quyidagi o'yinni misol keltirishimiz mumkin. Bolalarni 2 guruhga bo'lamiz. Doskaga aytaylik, varoqqa biror chiziqni yoki raqamlarni yozamiz. Bola esa undan biror rasm chiza olishi kerak. Bu o'yin orqali bolaning dunyoqarashi, tafakkuri kengayadi, hayol qilish jarayoni yaxshilanadi. Bolalarning xotira darajasini sinovdan o'tkazish uchun esa quyidagi o'yinni tashkil qilishimiz mumkin. Bunda har xil narsalarni misol qilib olishimiz mumkin. Masalan, o'yinchoqlar (qo'g'irchoq, mashina) ketma-ketlikda taxlab qo'yiladi. Ishtirokchi bola uni bir marta ko'rib olgandan so'ng o'giriladi. Tarbiyachi o'yinchoqlar ketma-ketligini amashtirib qo'yadi.

Yangilangan ketma-ketlikni bola ko'radi va uni birinchi bor ko'rgani kabi taxlab berishi kerak bo'ladi. O'yin xuddi shu tarzda guruhdagi boshqa bolalar bilan ham davom etadi.

Maktabgacha yoshdagi o'yin faoliyati bolalarni tartib va qoidalarga rioya qilishni o'rgatadi.

Bola hayotida o‘yin kattalar uchun ish yoki maktab o‘quvchisi uchun o‘qish kabi muhimdir.

O‘yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o‘z o‘yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga mehnatiga bo‘lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar.

O‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar. "Xaltachada nima bor?" o‘yinning maqsadi o‘yinchoqlarning nomlari bilan tanishtirish va bu o‘yinchoqlar to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlash, tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. "Bu nima?" o‘yinida bolalar qo‘g‘irchoqga har xil narsalar va ularni ishlatilishi to‘g‘risida gapirib beradilar. "Kimda mana bu rangdagi xaltacha bor", "Kim mana bu rangdagi xaltachani topa oladi" va hokazo. Ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi.

"Bu narsa o‘zi nima?", "Kim birinchi bo‘lib aytib beradi?", "Bu narsa to‘g‘risida nimalar deyishimiz mumkin?" kabi bolalarni diqqatini rivojlantirishga qaratilgan qo‘g‘irchoq, narsa va ularning shakli, rangi to‘g‘risidagi savollarni ham berishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo‘ladi va har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. O‘yin hayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to‘g‘risida bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi. O‘zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o‘yinlarda va mehnatda qo‘llaydilar.

O‘yinda bola organizmiga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi.

Xulosa o‘rinda shuni aytish kerakki, o‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ta‘lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi.

REFERENCES

1. Ilk qadam o‘quv dasturi T-2022-y.
2. Qodirova F., Toshpo‘latova. Sh. Kayumova N., A‘zamova N. "Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi" Toshkent-2019 y.
3. M.B.Berdiyeva "O‘qituvchi kreativ kompetensiyasining o‘quvchilar kreativ fikrlashiga ta‘siri" 2023-yil
4. M.B.Berdiyeva "Yangi O‘zbekistonda ma‘rifatli shaxs tarbiyasi"-2022-yil
5. N. T. Tosheva darslik 2023-yil
6. Ganiyeva, M. (2023). Mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda TRIZ ning imkoniyatlari. Scienceweb academic papers collection.
7. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. *Modern Science and Research*, 2(10), 91-94.

8. Ganiyeva, M. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. TALIM FIDOYILARI.